**TEXNIK TOPSHIRIQNOMA**

**«TASDIQLAYMAN»**
**"Biznesni rivojlantirish banki" ATB**
**Strategiya bosh direktori:**
**B.Rakhmatov**

**«1» iyun 2026 y.**
**№ 392**

**Bank xizmatlari, loyihalari va tadbirlarini targ'ibot etish hamda media loyihalarni amalga oshirish bo'yicha texnik topshiriqnoma**

| T/r | Talablar ro'yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 1. | **Buyurtmachi** | «Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB |
| 2. | **Buyurtmachi manzili** | Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011 |
| 3. | **Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi** | Bank xizmatlari, loyihalari va tadbirlarini targ'ibot etish hamda media loyihalarni amalga oshirish |
| 4. | **Moliyalashtirish manbai** | Bankning o'z mablag'lari |
| 5. | **Xarid predmeti batafsil tarkibi** | **Xizmatning yakuniy natijalari:** Buyurtmachining rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalari (Instagram, Telegram, YouTube, Facebook) uchun muntazam kontent ishlab chiqish va auditoriyani kengaytirish bo'yicha 8 oy davomida to'liq PR xizmati.<br><br>**Kontent rejaning maqsadi:**<br><br>🕐 Bank brendini mustahkamlash va unga bo'lgan ishonchni oshirish;<br>🕐 Bank mahsulotlari va xizmatlari haqida mijozlar xabardorligini kuchaytirish;<br>🕐 Mijozlar bilan ikki tomonlama muloqotni yo'lga qo'yish;<br>🕐 Moliyaviy savodxonlikka oid kontent orqali auditoriyaga qiymat yaratish;<br>🕐 Bankning tadbirkorlik ekotizimi sifatidagi pozitsiyasini kuchaytirish;<br>🕐 YouTube platformasidagi sifatli kontent orqali chuqurroq auditoriyaga chiqish. |

| T/r | Talablar ro‘yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| | | **Platformalar va e’lonlar miqdori (bir oylik):**<br><br>- Instagram — haftasiga 2 ta video-kontent, oyiga jami 8 ta (Reels formatida; qo‘shimcha — Stories va Highlights);<br>- Telegram — har kuni 1 ta video, oyiga jami 30 ta video;<br>- YouTube — har oy 1 ta video («Biznes jarayon» rubrikasi, davomiyligi ≈ 30 daqiqa);<br><br>Barcha video-kontentlar: professional video kamera yordamida sur’atga olinib, tajribali akter va aktrisalar jalb etilgan holda tayyorlanadi. Uning ichiga lokatsiyalarni topish va olish, kiyim va aksessuarlar, chiroq/grim ishlari hamda sur’atga olish va montaj qilish bilan bog’liq barcha ishlar kiradi.<br>Sur’atga olinadigan video mahsulotlar respublikaning istalgan hududida buyurtmachining talabiga binoan yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunda, buyurtmachi tomonidan o‘tkaziladigan tadbir haqida olinadigan video mahsulotlar bo‘yicha yetkazib beruvchiga 24 soat oldin xabar beriladi va buyurtmachining sur’atga olish jamoasi xabar qilgan manzilga belgilangan vaqtda yetib borishi lozim.<br>Jami — oyiga kamida 39 ta video-kontent (8 Instagram + 30 Telegram + 1 YouTube);<br><br>**Kontent rubrikalari:**<br><br>- Bank infratuzilmasi, filiallar tarmog‘i, xodimlar, texnologik baza va xalqaro hamkorliklar;<br>- Raqobatdagi ustunliklar: ekotizim, innovatsion yondashuvlar;<br>- Mijozlar muammolari va BRB tomonidan taklif etiladigan yechimlar;<br>- BRB maxsus dasturlari: Start-up, Kichik biznes dasturlari va loyihalar;<br>- Aniq natijalar: raqamlashtirish, avtomatlashtirish va vaqt tejash bo‘yicha yutuqlar;<br>- Kredit, depozit, karta, mobil ilova va boshqa bank mahsulotlarini tanishtirish;<br>- Real tadbirkorlar va mijozlarning BRB bilan ishlash tajribasi, interv’yu va suhbatlar;<br>- Sur’atga olish jrayoni, behind-the-scenes va jamoa ishi haqida video kontent.<br><br>**YouTube kontenti — «Biznes jarayon» rubrikasi:**<br><br>- Bir oyda 1 marta chiqariladigan, 30 daqiqadan kam bo‘lmagan davomiyligidagi analitik video;<br>- Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bizneslarni «ovozli izoh» |

| T/r | Talablar ro‘yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| | | formatida tahlil qilish;<br>🕐 Biznes modellarni batafsil ko‘rsatish va auditoriya uchun darslar chiqarish;<br>🕐 Muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini ochib berish;<br>🕐 Raqamlar, faktlar va real ma’lumotlarga asoslangan kontentni tayyorlash.<br><br>**Qo‘shimcha buyurtma kontentlar:**<br><br>🕐 Reja kontentlardan tashqari, har oyda 2 ta qo‘shimcha buyurtma kontent tayyorlanadi;<br>🕐 Mavzular Buyurtmachi talabidan kelib chiqib belgilanadi va u tomonidan tasdiqlanadi.<br><br>**Moliyaviy savodxonlik kursi:**<br><br>🕐 Loyihaning 2-oyidan boshlab — SMM va moliyaviy savodxonlik bo‘yicha maxsus o‘quv kursi tashkil etiladi;<br>🕐 Kursning umumiy davomiyligi — 2 oy;<br>🕐 Har oyda 2 ta offlayn uchrashuv tashkil qilinadi; qolgan darslar onlayn formatda o‘tkaziladi;<br>🕐 Darslar soni o‘quvchilar talabidan kelib chiqib oshirilishi mumkin.<br><br>**Kontent ishlab chiqarish bosqichlari:**<br><br>**Birinchi bosqich — Tayyorgarlik:**<br><br>🕐 BRB Bankni chuqur o‘rganish (bank tuzilmasi, mahsulotlari, sho‘ba korxonalari tahlili);<br>🕐 Ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud holatni va auditoriyani tahlil qilish;<br>🕐 Bank jamoasini o‘rganib chiqish (a’zolar, kuchli tomonlar, mas’uliyat taqsimoti);<br>🕐 Ijtimoiy tarmoq kontentlari uchun ssenariylarni ishlab chiqish;<br>🕐 Har bir kontent uchun sur’atga olish davrlarini belgilash;<br>🕐 Post-production va e’lon (publish) jadvalini yakunlash;<br>🕐 Birinchi oy uchun to‘liq haftalik kontent kalendarini tayyorlash;<br>🕐 PR strategiya ishlab chiqish;<br>**Ikkinchi bosqich — Ishlab chiqarish (Production):**<br><br>🕐 Tasdiqlangan ssenariylar asosida video va foto-kontentlarni sur’atga olish; |

| T/r | Talablar ro‘yxati | Talablar mazmuni |
| --- | --- | --- |
| | | • Buyurtmachining brend talablariga muvofiq grafika, animatsiya va dizayn elementlarini joylashtirish;<br>• Video roliklarni montaj qilish, ovoz, musiqa va matnli yozuvlar bilan jihozlash;<br>• Materiallarni Buyurtmachining tasdiqlashiga taqdim etish.<br>**Uchinchi bosqich — E’lon qilish va kanal o‘sishi:**<br><br>• Tasdiqlangan kontentni rejaga muvofiq Instagram, Facebook, Telegram va YouTube platformalarida e’lon qilish;<br>• E’lonlarning samaradorligi (yetib borish, ko‘rishlar, jalb qilish, obunachilar o‘sishi) bo‘yicha statistik hisobotlarni Buyurtmachiga taqdim etish.<br><br>**Til talablari:** Kontentlar Buyurtmachi talabiga asosan o‘zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida tayyorlanadi.<br><br>**Sifat va matn talablari:**<br><br>• Barcha video kontent kamida Full HD (1920×1080) sifatda, ijtimoiy tarmoq formatlariga moslashtirilgan holda taqdim etiladi;<br>• YouTube uchun videolar 4K sifatda tayyorlanishi lozim;<br>• Reels, Stories va vertikal formatdagi videolar 9:16 nisbatda tayyorlanadi;<br>• Barcha matnlar, vizual va dizayn elementlari Buyurtmachining brend qo‘llanmasiga (brand book) muvofiq bo‘lishi shart;<br>• Tayyorlangan barcha materiallar mualliflik huquqi muammolarisiz, asl (litsenziyalangan) musiqa, shrift va grafika resurslari asosida ishlab chiqilishi lozim;<br>• Buyurtmachi taqdim etilgan har qanday materialni takomillashtirish uchun Yetkazib beruvchiga qaytarish huquqiga ega.<br><br>**Mas’uliyatli mutaxassislar tarkibi (kamida):**<br><br>• Akkaunt menejeri / loyiha menejeri — 1 kishi;<br>• SMM-mutaxassis / kontent menejer — 1 kishi;<br>• Kopirayter — 1 kishi;<br>• Ssenariy muallifi — 1 kishi;<br>• Rejissor / prodyuser — 1 kishi;<br>• Operator — kamida 1 kishi;<br>• Video montajchi — 1 kishi;<br>• Grafik dizayner / motion-dizayner — 1 kishi; |

| T/r | Talablar ro‘yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 6. | **Yetkazib berish shartlari** | Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida ishlar boshlanishi va 8 oy davomida yetkazib berilishi lozim. Tayyorgarlik bosqichi (bankni o‘rganish, jamoa va auditoriyani tahlil qilish, ssenariylarni ishlab chiqish, oylik kontent rejasini tayyorlash) shartnoma imzolangan kundan 5 kalendar kun ichida amalga oshiriladi. |
| 7. | **To‘lovlarni amalga oshirish shartlari** | - Shartnoma rasmiylashtirilganidan so‘ng oldindan 30% to‘lov amalga oshiriladi;<br>- Keyingi to‘lovlar oylik tartibda, har oy uchun bajarilgan ishlar va xizmatlar bo‘yicha topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura Buyurtmachi va yetkazib beruvchi tomonidan imzolangandan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi; |
| 8. | **Shartnomani amal qilish muddati** | Shartnoma summasi to‘liq foydalangunga qadar. |
| 9. | **Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish** | Ijrochi (Yetkazib beruvchi) tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar har oy oxirida hisobot, e’lon qilingan kontent ro‘yxati va statistik ma’lumotlar (yetib borish, ko‘rishlar, jalb qilish, obunachilar o‘sishi) bilan birga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi ko‘rinishida taqdim etiladi. Dalolatnoma ikki tomonlama imzolangan paytdan e’tiboran ishlar bajarilgan hisoblanadi. |
| 10. | **Baholash mezoni** | (78) 150-93-39 (ichki 572) Mirzajonov X. |